

## HARAKATLAR STRATEGIYASIDA XOTIN QIZLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING YANADA RIVOJLANTIRILISHI

**Malika Uraimjonova Qahromon qizi**

[malikauraimjonova0109@gmail.com](mailto:malikauraimjonova0109@gmail.com)

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, oila va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, oila, onalik hamda bolalikni muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, o'nlab qonunlar, farmon va qarorlar, davlat dasturlari huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Xotin-qizlar, oila, onalik, mahalla va oila, harakatlar strategiyasi.

**Abstract:** In this article, the Constitution of the Republic of Uzbekistan, dozens of laws, decrees and resolutions, state programs are the legal basis for increasing the socio-political activity of women in the Republic of Uzbekistan, strengthening their position in the family and society, and protecting the family, motherhood and childhood.

**Keywords:** Women, family, motherhood, neighborhood and family, action strategy.

O'zbekiston Respublikasida Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, oila va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, oila, onalik hamda bolalikni muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, o'nlab qonunlar, farmon va qarorlar, davlat dasturlari huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xotin qizlarning davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyati bugungi kunda davlatimiz rahbarlari tomonidan olib borilayotgan siyosatning eng avvalida bo'lib, ular uchun imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. 2017 yil 7 fevraldagi Prezident farmoni bilan tasdiqlangan □2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi□ qabul qilindi. □Harakatlar strategiyasi□da ham aynan, xotin qizlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, sog'lom onalik va bolalik uchun shart sharoit yaratib berish borasida ishlar rejalashtirilgan edi. 2017-2021-yillarda ayollar orasida sportning ommaviyligini oshirish, korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilayotgan ayollar salomatligini mustahkamlash maqsadida

kelgusida Qorasalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida «Sog‘lom ona sog‘lom bola» shiori ostida an’anaviy mintaqaviy «Ayollar sport festivali», «Sog‘lom avlod uchun» kubogi uchun suzish, sinxron suzish, suvga sakrash, gimnastika, badiiy gimnastika, sport raqsi va gimnastikasi kabi sport musobaqalari hamda boshqa tadbirlar o‘tkaziladi<sup>1</sup> deb davlatimiz rahbari ta’kidlagan edilar. Ayollarni moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 150 million so‘m miqdorida mamlakatimizning turli hududlarida yashovchi 2 ming nafar ehtiyojmand oila ayollari elektr maishiy texnika jihozlari berish yo‘li bilan rag‘batlantiriladi.<sup>2</sup> Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishni Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda ayollar bandligini ta’minlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, Xotin qizlar tadbirkorligini qo‘llab quvvatlash borasida mamlakatimizda erishayotgan yutuqlar ayniqsa, uy hunarmandchiligi, kasanachilikni rivojlantirishga qaratilgan say harakatlar diqqatga sazovordir. Ayollarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi oilaning moddiy farovonligiga hissa qo‘shishiga olib keladi. Harakatlar strategiyasida ayollar va qizlarning salomatligini mustahkamlash, ular orasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, shuningdek, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash bilan bog‘liq dolzarb chora tadbirlar ham qamrab olingan. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi davlat dasturiga asosan, xotin qizlarga oid davlat siyosatining yanada rivojlantirilishi belgilangan edi. Xususan, dasturning **“Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘limining 4.2.bandida belgilanganidek Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo‘nalishi doirasida 2017 2021-yillarda quyidagi maqsadlarni:** oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko‘rsatish, chaqaloqlar va bolalar o‘limini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish; xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash<sup>3</sup> kabilarni amalga oshirish belgilangan

<sup>1</sup> *Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bуйича Харакатлар стратегияси т5^исида»ги 4947-сон Фармони, 226-банд.*

<sup>2</sup> *Уша манба, 227-банд*

<sup>3</sup> *2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi*

edi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasi asosida 2017-2021-yillarda ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bu davrda ijtimoiy soha rivojlandi. Aholi turmush darajasi oshdi, sog‘liqni saqlash tizimi mustahkamlanmoqda. Xotin-qizlarni bandligini ta‘minlash, ularni mehnat sharoitlariga jalb etish, ularni mablag‘ bilan ta‘minlash va bu masalani mas‘ul mutassadilar rahbarligida olib borilishi kabi masalalar ham Harakatlar strategiyasi asosida qabul qilingan dasturlarda o‘z ifodasini topgan va qonun doirasida belgilab qo‘yilgan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Ishga marhamat monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o‘qitish maskanlari hamda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta‘lim muassasalarining kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlari; Ajratiladigan kreditlar, istisno tariqasida, 2022-yil 1-yanvarga qadar Markaziy bankning asosiy stavkasi doirasida, 2022-yil 1-yanvardan tijorat banki tomonidan yillik 14 foiz stavkada beriladi. Xotin-qizlar va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi orqali Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi Obod va xavfsiz mahalla jamg‘armasiga va Mahalla va oila institutiga Davlat budjetidan ajratib kelingan mablag‘lar 2021-yildan boshlab Moliya vazirligi tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri Obod va xavfsiz mahalla jamg‘armasiga va Mahalla va oila institutiga ajratiladi<sup>1</sup>.

Joriy va oldingi yillar davomida qabul qilingan qarorlarga nazar tashlasak, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar, nogironligi bo‘lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang‘ich badalini to‘lab berish; xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sog‘lig‘ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o‘qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish; xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag‘larini belgilangan tartibda joylashtirish; xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish<sup>2</sup>. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5320582>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV. Toshkent sh.,2021-yil 5-mart, PQ-5020-son

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/25.12.2021>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh.,2021-yil 5-mart, PQ-5020-son

raisligida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, gender tenglikni qaror toptirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasi davlat dasturi doirasida hamda muhim chora-tadbirlar yuzasidan bir necha bor videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Bundan tashqari, xotin qizlar masalasi davlat siyosati darajasida ko'riladigan eng muhim masala sifatida bo'lib, unga oid ko'plab qonun hujjatlari, davlat dasturlari, Prezident farmonlari qabul qilinib kelinmoqda.

Jumladan, 2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qizlar doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi; 2021-yilda 190 ming nafar ayollar kasb-hunarga o'qitildi; 2020-yilda yo'lga qo'yilgan Ayollar daftari tizimi doirasida 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berildi. Yangi O'zbekistonda joriy etilgan Harakatlar strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu muhim vazifalar ijrosini ta'minlashda har bir mahalla kesimida amalga oshirishni ta'minlash maqsadida bugun "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi"ni tashkil etish bo'yicha Prezident Farmoni qabul qilindi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. **Узбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Узбекистон Республикасини янада ривожлантириш буйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги 4947-сон Фармони, 226-банд.**
2. **2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi".**
3. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV. Toshkent sh., 2021-yil 5-mart, PQ-5020-son.**
4. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh., 2021-yil 5-mart, PQ-5020-son**